

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISH DARAJASINI ANIQLASH VA UNI RIVOJLANTIRISH

Raximova Aziza Karimovna

Zarmed Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

azizakarimovna1995@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi (7-10 yosh) o‘quvchilarning aqliy rivojlanish jarayoni ularning kelgusidagi ta’limdagi yutuqlari va ijtimoiy moslashuvi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, maqolada bu davrdagi o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlash, o‘z vaqtida baholash va rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, aqliy rivojlanish, bilish jarayonlari, intellekt, sensomotor, operatsiyalar, test, o‘yinlar, kuzatuv, suhbat

Asosiy qism

1. Aqliy rivojlanish tushunchasi

Aqliy rivojlanish – bu bolaning bilish jarayonlari, ya’ni sezgi, idrok, tafakkur, xotira, diqqat, nutq va xayol kabi psixik funksiyalarining sifat jihatdan o‘zgarish borishi hisoblanadi. Piaje va boshqa psixologlarning fikriga ko‘ra, bolalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir bosqichda o‘ziga xos tafakkur shakllari namoyon bo‘ladi.

Jan Piaje (1896–1980) — shveysariyalik psixolog, biolog va falsafa doktori, bolalar aqliy rivojlanish nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U ilk bor bolalarning tafakkuri kattalarnikidan sifat jihatdan farq qilishini ilmiy asosda isbotlagan.

Piajening intellektual rivojlanish bosqichlari

Piaje inson tafakkurining rivojlanishini to‘rt bosqichga ajratgan. Kichik maktab yoshi bu bosqichlar ichida “aniq operatsiyalar bosqichi” (7–11 yosh) ga to‘g‘ri keladi:

- Sensomotor bosqich (0–2 yosh)
- Preoperatsional bosqich (2–7 yosh)
- Aniq operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh)
- Formal (abstrakt) operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan yuqori)

2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy xususiyatlari

Bu yoshdagi bolalarda quyidagi aqliy o‘zgarishlar kuzatiladi:

Analitik tafakkur shakllanishi: Bolalar sabab-oqibat aloqalarini tushunishni boshlaydi. Xotiraning ixtiyoriyligi ortadi: Maqsadli yodlashga intilish kuchayadi.

Diqqatning barqarorlashuvi: Biror mashg‘ulotga uzoqroq muddat e‘tibor berish qobiliyati rivojlanadi. Nutq orqali tafakkur: Til yordamida fikr yuritish rivojlanadi.

Aniq operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh) xususiyatlari: Bu bosqich aynan kichik maktab yoshi davriga to‘g‘ri keladi. Piajega ko‘ra, bu davrda bolalarning tafakkuri quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

Reversivlik (teskarilik) tushunchasi shakllanadi. Bola bir amalni fikran orqaga qaytara oladi. Masalan, agar suv A idishdan B idishga quvildi va shakli o‘zgardi, bola suv miqdori o‘zgarmaganini tushunadi.

Konservatsiya tushunchasi rivojlanadi. Bola uzunroq lekin torroq idishdagi suyuqlikni avvalgidek deb biladi – bu moddiy konservatsiyani tushunish hisoblanadi (massa, hajm, sonning o‘zgarmasligi).

Sinflashtirish va tartiblash. Bola buyumlarni guruhlariga ajrata oladi, ularni muayyan tartibda joylashtira oladi (masalan, uzunlik, og‘irlik bo‘yicha).

Mantiqiy fikrlashning boshlanishi. Garchi hali abstrakt fikrlash kuchli bo‘lmasa-da, bola ko‘proq haqiqatga yaqin misollar asosida to‘g‘ri xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Egotsentrizmning kamayishi. Bola o‘z nuqtayi nazaridan tashqari, boshqalarning qarashlarini ham hisobga olishni boshlaydi.

3. Aqliy rivojlanish darajasini aniqlash usullari

O‘quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Psixologik testlar (masalan, Raven matritsasi, Bin-Bujur testi);
- Didaktik o‘yinlar va topshiriqlar;
- Pedagogik kuzatuv – o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi;
- Savol-javob va suhbat – o‘quvchilarning fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyatini aniqlash.

4. Aqliy rivojlanishni rivojlantirish yo‘llari

Muammoli vaziyatlar yaratish: Bolani mustaqil fikrlashga undovchi savollar beriladi.

Didaktik o‘yinlardan foydalaniladi: Mantiqiy o‘yinlar, jumboqlar, pazllar.

Ijodiy topshiriqlar beriladi: Hikoya tuzish, tasviriy san’at bilan shug‘ullanish.

Axborot texnologiyalaridan foydalaniladi: Interaktiv dasturlar, onlayn o‘yinlar.

Shuningdek, oiladagi muhit, ota-onaning mehribonligi va bolaga e‘tibori ham aqliy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Piaje tadqiqotlarining amaliy ahamiyati

J. Piajening tadqiqotlari asosida o‘qituvchilar va psixologlar bolalarning aqliy rivojlanishini quyidagicha tashkil etishlari mumkin:

O‘rgatishda bosqichma-bosqichlikni ta’minlash: Har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish bosqichi borligini e‘tiborga olinadi.

Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish: Piajega ko‘ra, bolalar aniq tasvirlangan, ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan obyektlar bilan osonroq ishlaydi.

Muammoli topshiriqlar va tajribalar: Bola mustaqil izlanishda bo‘lishi lozim. Piaje “bilim – bu kashfiyot” deb aytgan.

Qiyoslash va tahlil qilishga yo‘naltirish: Moddalar soni, hajmi, vazni, shaklini qiyoslab o‘rganish orqali bola tafakkurini mustahkamlaydi.

Xulosa

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash va uni samarali rivojlantirish — ta‘limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu yo‘nalishda psixologik yondashuv, didaktik vositalar, innovatsion metodlar birgalikda qo‘llanilganda, bolalarning intellektual salohiyati to‘laonli namoyon bo‘ladi. Shu bois, o‘qituvchilar va ota-onalar bolaning har tomonlama rivojlanishiga doimiy e‘tibor qaratishi lozim.

J. Piajening bolalar aqliy rivojlanishi haqidagi tadqiqotlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkurini tushunishda va rivojlantirishda beqiyos manba hisoblanadi. Ularning tafakkur darajasiga mos o‘quv metodlarini tanlash, rivojlantiruvchi o‘yinlar va topshiriqlar orqali bolani faol o‘quvchi sifatida shakllantirish mumkin. Piajening yondashuvi orqali bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va o‘z qarashlarini asoslash kabi muhim qobiliyatlar rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Piaje.J. Bola psixologiyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
- 2.Viygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya – Moskva, 1991.
- 3.Karimova Z. Psixologiya asoslari – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
- 4.Umrzoqova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda innovatsion metodlar – Toshkent, 2020.
- 5.Raximov I., Sodiqova N. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarning aqliy faolligini rivojlantirish – Toshkent, 2021.